



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 24-sentabr

487-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mehmonxona xo‘jaligi faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 7-sentyabrdagi 550-son qarori ijrosi haqida”gi 436-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mehmonxona xo‘jaligi faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 7-sentyabrdagi 550-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-sentyabrdagi 436-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mehmonxona xo‘jaligi faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 7-sentyabrdagi 550-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-sentyabrdagi 436-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-sentyabrdagi 550-son qarori bilan:

Investorlarga yangi mehmonxona qurish va uni jihozlash uchun subsidiya ajratish hamda tashkilotlarni franchayzing to‘g‘risidagi shartnoma asosida qisman moliyalashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan mablag‘ ajratish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 1-ilovaga muvofiq;

Toifasi (yulduz) bo‘lmagan joylashtirish vositalari uch va undan yuqori toifa (yulduz) olganda muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish bo‘yicha xarajatlarni Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplab berish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 2-ilovaga muvofiq;

Qurilish va foydalanishga topshirilgan vaqtda xonalar soni ellik va undan yuqori bo‘lgan mehmonxonalarni qurish va jihozlash xarajatlarining bir qismini qoplash uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan mablag‘ ajratish tartibi to‘g‘risidagi vaqtinchalik nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha:

Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlarida aniq hududlarda toifasidan qat'i nazar yangi mehmonxona qurish va uni jihozlash xarajatlarining bir qismini qoplash uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan subsidiya berish tartibi nazarda tutilgan bo'lsa, 3, 4 va 5 yulduzli yangi mehmonxonalarga subsidiya ajratish uchun ushbu qarorga 1-ilovada belgilangan tartib tadbiiq etilishi;

qarorga 1-3-ilovalarga muvofiq tegishli yulduzli toifaga ega bo'lgan mehmonxona uchun subsidiya (moliyalashtirish, xarajatlarni qoplash) ajratilgan davrdan boshlab 5 yildan kam bo'lmagan muddatda, investor mehmonxona ishonchli boshqaruvga berilganligidan qat'i nazar, uning kamida ushbu toifaga egaligini ta'minlashi lozimligi, aks holda ajratilgan mablag'lar tegishlicha O'zbekiston Respublikasi respublika budjetiga va Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga qaytarilishi belgilanganligi;

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga 4-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilganligi e'tiborga olinsin.

3. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-sentyabrdagi 436-6-0-Q/24-sonli qarori bilan:

Viloyat turizm boshqarmasi (O.Rasulov) manfaatdor boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-sentabrdagi 550-son qarori talablaridan kelib chiqib, ish tashkil qilishi belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari-Investitsiyalar, sanoat va savdo bo'limi boshlig'i Sh.Umaraliyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov